

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.13/30.12.2019.T.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

XODJIYEV SAFAR

**ICHKI VA TASHQI FAZOVIIY TURBULENT REAKSIYAGA
KIRISHUVCHI OQIMLARDA ISSIQLIK VA MASSA ALMASHUVI
JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH VA SONLI TADQIQ**

05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

Оглавление автореферата докторской (DSc)

Contents of the abstract of doctoral (DSc) dissertation

Xodjiyev Safar

Ichki va tashqi fazoviy turbulent reaksiyaga kirishuvchi oqimlarda issiqlik va massa almashuvi jarayonlarini modellashtirish va sonli o'rganish3

Ходжиев Сафар

Моделирование и численное исследование процессов тепло- и массообмена внутренних и внешних пространственных турбулентных струй реагирующих газов.....26

Khodjiev Safar

Modeling and numerical study of heat and mass transfer processes of internal and external spatial turbulent jets of reacting gases.....51

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....55

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.13/30.12.2019.T.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

XODJIYEV SAFAR

**ICHKI VA TASHQI FAZOVIIY TURBULENT REAKSIYAGA
KIRISHUVCHI OQIMLARDA ISSIQLIK VA MASSA ALMASHUVI
JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH VA SONLI TADQIQOTI**

05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Tenika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.DSc/T564 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume) ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tuit.uz) va "ZiyoNet" Axborot- ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Aripov Mersaid Mirsiddiqovich**
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Xujaev Ismatulla Kushayevich**
texnika fanlari doktori, professor

Hayotov Abdullo Rahmonovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Djumanov Jamoljon Xudoyqulovich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakehi tashkilot: **Toshkent davlat transport universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.13/30.12.2019.T.07.01 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil «12» 09 da soat 14 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871)238-64-43, e-mail: tuit@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871)238-64-43).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil « ____ » _____ da tarqatildi.

(2024 yil « ____ » _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).



M.M. Musayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
texnika fanlar doktori, professor

E.Sh. Nazirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

F.M. Nuraliyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi
texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori dissertatsiyasi annotatsiyasi (DSc))

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda turbulentlik nazariyasining dolzarb muammolariga, kimyoviy reaksiyalar mavjud bo'lgan turbulent oqimlar va gaz aralashmalarining samarali yonishiga katta e'tibor berilmoqda. Bunday muammolarga qiziqish kimyoviy va lazer texnologiyalari, aviatsiya, atom energetikasi ehtiyojlari, turli xil yonish moslamalari va kameralarini yaratish kabi texnik qurilmalar sonining ko'payishi hamda atrof-muhitga zaharli gaz aralashmalari chiqindilarini chiqarish bilan bog'liq. Shu bilan birga, reaksiyaga kirmaydigan va reaksiyaga kirishuvchi gaz aralashmalarining nafaqat uch o'lchamli, balki ikki o'lchovli turbulent struya oqimlarini ham yetarli darajada modellashtirish muammosi mexanika va amaliy fizikada bugungi kungacha eng qiyin muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Qaralayotgan muammoning murakkabligi, bir tomondan, turbulentlik nazariyasining to'liq emasligi bilan, ikkinchidan, o'ta murakkab tabiatidan iborat bo'lgan kimyoviy reaksiyalar mavjud bo'lgan turbulent oqimlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq.

Hozirgi kunda jahonning yetakchi olimlari tomonidan ichki va fazoviy erkin turbulent oqimlarni, shuningdek, gaz aralashmalarini yonish jarayonlarini o'rganish uchun matematik modellar, samarali hisoblash usullari, hisoblash algoritmlari va dasturiy ta'minotni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamiz olimlari fundamental fanlarning ilmiy-amaliy qo'llanilishiga ega bo'lgan dolzarb yo'nalishlariga, xususan, nazariy tadqiq etishning ajralmas samarali usuli bo'lgan modellashtirish bilan kimyoviy reaksiyaga kirishuvchi muhitlar dinamikasini o'rganishga alohida e'tibor qaratmoqda. Ular, ayniqsa, Yangi O'zbekistonning shakllanish jarayonida, sanoatni modernizatsiya qilish orqali chiqindisiz texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish va tatbiq etish, ayniqsa, tabiiy gazni tejamkorlik bilan yoqish imkonini beruvchi texnik qurilmalarni yaratish bo'yicha ishtiyoq bilan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishmoqda.

Aniq va samarali matematik modellarni yaratish hamda ularni echish uchun metodlar, algoritmlar va dasturlarni ishlab chiqish ikki va uch o'lchovli turbulent oqimlarda issiqlik va massaalmashuvi jarayonlarini tadqiqot qilish uchun muhim vazifalar bo'lib hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya doirasida olib borilgan tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli¹ "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-noyabrdagi PQ-3379-son "Energiya resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori hamda ushbu faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada hamohangdir.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya ishi tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi

¹ [O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonni 2022-2026-yillarda rivojlantirish strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son Farmoni;](#)

fan va texnologiyalarini rivojlantirishning IV. “Axborotlashtirish va axbopot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Matematik modellashtirish va hisoblash usullaridan foydalangan holda sonli eksperimentlar yordamida issiqlik va massa almashinuvi jarayonlari muammosini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar dunyoning oliy o‘quv yurtlari va yirik ilmiy markazlarida, xususan: NASA va Stenford universitetida (AQSh), Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg Politexnika Universiteti, TSAGI (Rossiya), Qozog‘iston Milliy universiteti (Olmaota), O‘zbekiston Milliy universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Matematika va Inshootlar mustahamligi va mexanikasi institutlarida olib boriladi.

Hozirgi vaqtda dunyoning yetakchi olimlari gazlarning turbulentslik, turbulent oqimi va yonishi, shuningdek kimyoviy o‘zaro ta’sirsiz va ta’sirda bo‘lgan turbulent struya oqimlarni matematik modellashtirish nazariyalarini rivojlantirish ustida faol izlanish olib bormoqdalar.

Turbulent, ayniqsa, uch o‘lchamli struya oqimlarni tadqiqoti hozirgi holati Xalqaro nazariy va amaliy anjumanlarda AQSH, G‘arbiy Yevropa, Yaponiya, Qozoqiston, Rossiya va boshqa mamlakatlarning taniqli mutaxassisleri ishtirokida muntazam ravishda muhokama qilinmoqda.

Turbulentslikni modellashtirish muammolari, ichki va tashqi fazoviy turbulent oqimlarning issiqlik va massa almashinish jarayonlarini ishonchli hisoblash usullari va eksperimental tadqiqotlari xorijiy mutaxassislarning ilmiy nashrlari va monografiyalarida yoritilmoqda, xususan: B. Van den Berg (Niderlandiya), I.-D. Fagm (G‘arbiy Berlin), J. Kustei (Fransiya), Tsze Ch. Tai (AQSh), S. Soroyi va A. D. Yung (Buyuk Britaniya), I. Senoo (Yaponiya) va klassik monografiyalar: P. Roach; E. Oran va J. Boris; D. Anderson, J. Tannexill, Pletcher; K. Fletcher, Lapin Yu.V., Strelets M.X., Garbaruk A.V., Shur M.L., Loytsyanskiy L. G. va boshqa olimlar ishlarida mavjud.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ichki va tashqi fazoviy turbulent reaksiyaga kirishuvchi oqimlarda issiqlik va massa almashinish jarayonlarini modellashtirish va sonli o‘rganish bilan bog‘liq tadqiqotlar G.N.Abramovich, N.I.Akatnov, F., Ginzburg I.P., Baev V.K., Bai Shi-i, Vulis L.A., Ershin Sh.A., Yarin L.P., Zeldovich Ya.B., Loytsyanskiy L.G., Lapin Yu.V., Strelets M.X., Pospelov V.A., Ferri A., T.D. Teylor, E. Ndefo., Prandtl L., Palatnik I.B., Temirbaev D.J. kabi ko‘plab olimlar tomonidan olib borilgan va olib borilmoqda.

Respublikamiz olimlari Aliyev F., M.M. Aripov, Jumaev Z.Sh., Xujaev I.K., N. Ravshanov, Malikov Z.M. va boshqalar ko‘p fazali va ko‘p komponentali reaksiyaga kirishuvchi muhitlarning gidroaerodinamikasi, hamda yonish muammolarini nazariy va eksperimental, shuningdek, sonli tadqiq qilish ishlarini olib bormoqdalar.

² Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi tahlili quyidagi manbalarga asosan bajarilgan: <http://www.sciencedirect.com/science/jrnallbooks/sub/mathematics>.

Ikki turbulent oqimni aralashishida resirkulyatsiya zonalarining mavjudligi shartlari va o'lchamlari nazariy va eksperimental tadqiqotlari natijalari Graya A., Cyrtet R., Barchilon, V.K.Baev va uning hamkasblarining ishlarida keltirilgan. Biroq, eksperimental tadqiqotlar va umumlashtirishlar, asosan, kanalga kirishda oqimlarning ko'ndalang kesimi maydonlarining katta nisbati holatlariga taalluqlidir.

Quvurlarda oqimlar aralashishining ba'zi parametrlari to'liq Nave-Stoks tenglamalari asosida, mualliflar V.N.Petrov, N.N.Fedorova, K.V.Fedotova, A.G.Egorov, N.E.Shishkin va boshqalar tomonidan o'rganilgan, lekin yo'ldosh oqimlarning qaysi parametrlari va quvur geometriyasida resirkulyatsiya zonasi kuzatilishi o'rganilmagan.

Uch o'lchovli, ayniqsa kimyoviy reaksiyali turbulent oqimlarni hisoblash uchun tegishli usullarni ishlab chiqish muammo, chunki uch o'lchovli turbulent oqimlar uchun qoniqarli turbulentlik modeli deyarli yo'q.

Mualliflar I.B. Palatnik, D.J.Temirboev, J.Way, P.L.Libbi, L.N.Uxanov, M.N.Shtayger, K.Kuzov, S.I.Isatayev, R.M.Sforza, A.P.Makasheva, A.J.Naymanovalar, asosan, to'g'ri to'rtburchakli soplodan oqib chiquvchi yopishqoq struya qo'shilishiga oid bir qancha tajribalar va nazariy - sonli hisoblarlarni amalga oshirganlar.

Qo'shilmagan gazlarning yonishining eng umumiy tahlilini Ya.B.Zeldovich, V.A.Shvab, A.A.Vulis, Sh.A.Eyrshin, L.P.Yarin, V.K.Baev va o'zbek olimlari, F.Aliyev, Z., Sh.Jumayev, I.K.Xujayev va boshqalar ilmiy ishlarida mavjud.

Keltirilgan ishlardagi tadqiqotlar asosan ikki o'lchovli tekis yoki o'qqa simmetrik turbulent oqimlarda aralashmagan gazlarning yonishi bilan bog'liq. To'g'ri to'rtburchakli yoki murakkab shakldagi soplodan chiqayotgan yoqilg'i gaz yoniishdagi alanga parametrlarini batafsil sonli o'rganish nashrlarda deyarli yo'q, ammo V.I.Vasilyevning hammualliflidagi ishlari va mualliflar A.A.Vulis, Sh.A.Ershin, L. P. Yarin, Markatos N. C., Moulton A., Carpenter M. H., Patankar S. V., Spalding D., G. A. Kamalova., V. E.Messerle, A.J.Naymanova, A.B.Ustimenko tadqiqotlarida fazoviy turbulent oqimlar ayrim parametrlari o'rganilgan xolos.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, OT-F4-30 «Ikki marta noxiziqli kross sistemaning konvektiv ko'chish, o'zgaruvchan zichlik, manba yoki yutish ta'siridagi sifat xossalari tadqiq qilish» va MRU-OT-81/2017 "Ikki fazali muhitning termodinamik jihatdan izchil matematik modelini o'zaro effektlar bilan dissipativ yaqinlashuvda matematik modellashtirish" mavzularidagi ilmiy tadqiqot loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi -ichki ikki o'lchovli va uch o'lchovli reaksiyaga kirishuvchi gaz aralashmalarining turbulent oqimlar modellarini yaratish va nazariyasini rivojlantirish, turbulent yopishqoqlik koeffitsiyenti bo'yicha algebraik va ikki parametrli mavjud modellarini takomillashtirish va yangi turbulentlik modellarni ishlab chiqish, uch o'lchovli parabolalashgan Nave-Stoks tenglamalarini sonli echish metodlarini takomillashtirish shuningdek, gidroaerodinamika masalalarini modellashtirishdan iboratdir.

Tadqiqot vazifalari:

reaksiyaga kirishuvchi gazlarning turbulent oqimlarining ichki va tashqi fazoviy muammolarini o'rganish uchun ularni modellashtirish va uni echish hisoblash usullarini, algoritmlarini va dasturiy ta'minotlarini ishlab chiqish;

kesimi o'zgarmas va o'zgaruvchan quvurlarda yo'ldosh struya oqimlarni aralashishi va tarqalish jarayonlarini o'rganish;

aralashuvchi oqimlarining boshlang'ich parametrlari nisbati va quvur geometriyasi o'chovlarini qanday qiymatlarida resirkulyatsiya zonalari paydo bo'lishi mumkinligini o'rganish;

to'g'ri to'rtburchak soplodan chiqayotgan izotermik va izotermik bo'lmagan, hamda reaksiyaga kirishuvchi gazlarning oqim boshlang'ich qismini o'rganish;

fazoviy reaksiyaga kirishuvchi turbulent struya oqimlar uchun algebraik turbulentlik modelini takomillashtirish;

fazoviy turbulent struya oqimlar uchun kop parametrli turbulentlik modelini takomillashtirish;

yoqilg'i va oksidlovchi gaz boshlang'ich qiymatlari, tezligi, harorati, konsentratsiyasi, turbulentlikning kinetik energiyasi va to'g'ri to'rtburchakli soplo tomonlar nisbatini alanga parametrlariga ta'sirini o'rganish;

olingan sonli yechimlarni tajriba ma'lumotlari va boshqa ma'lum yechimlar bilan solishtirish yo'li bilan moslik darajasini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti. Tadqiqot obyekti, kesimi o'zgarmas va o'zgaruvchi quvurlarda koaksial turbulent oqimlar, shuningdek uch o'lchovli reaksiyaga kirishuvchi gaz aralashmalari va diffuziyon alangan iborat.

Tadqiqotning predmeti - ikki o'lchovli yopishqoq gaz ychun to'liq Nave-Stoks va ko'p komponentli reaksiyaga kirishuvchi gaz uchun uch o'lchovli parabolalashgan Nave-Stoks tenglamalaridir.

Tadqiqot usullari. Mazkur dissertatsiyada ikki o'lchovli nostatsionar to'liq va uch o'lchovli parabolalashgan Nave-Stoks tenglamalari sistemasini sonli yechish usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kesimi o'zgarmas va o'zgaruvchi quvurda koaksial turbulent oqimlarni aralashishi va tarqalishini jarayoni matematik modeli qurilgan va sonli eychilgan;

to'liq Nave-Stoks tenglamalari sistemasini konservativ shaklini saqlab qolish imkonini beradigan va hisoblash ishlarini samarasini oshirish uchun, fizik parametrlarni va koordinatalarni o'lchovsizlikka keltiradigan, qaralayotgan sohani birlik kbadrat sohaga o'kazadigan hamda gaz-dinamik parametrlarning katta gradiyentlari bo'lgan oqim hududida hisoblash nuqtalarini quyushtiradigan matematik almashtirishlar ko'rsatilgan;

to'g'ri to'rtburchakli soplodan oqib chiqadigan reaksiyaga kirishuvchi aralashmagan gazlarning uch o'lchamli turbulent yonish jarayoni matematik modeli qurilgan va sonli yechilgan;

izotermik, izotermik bo'lmagan, shuningdek reaksiyaga kirishuvchi uch o'lchovli struya gaz aralashmalarining turbulent yopishqoqlik koeffitsiyentini hisoblas uchun algebraik turbulentlik modellari taklif qilingan;

reaksiyaga kirishuvchi gaz aralashmalarining uch o'lchovli turbulent oqimlarini hisoblash uchun turbulent yopishqoqlik koeffitsiyenti uchun ikki parametrlilik $k - \varepsilon$ modeliga kiritilgan empirik konstantalarning qiymatlari aniqlangan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ikki o'lchovli statsionar bo'lmagan to'liq Nave-Stoks tenglamalari uchun chekli ayirmali sxemalar va algoritmlar qurilgan, hamda ichki oqimlarni o'rganishda qo'llanilgan;

uch o'lchovli parabolalashgan Nave-Stoks tenglamalari uchun chekli ayirmali sxemalar va algoritmlar qurilgan, hamda ular tadbiqida aralashmagan gazlar diffuzion yonishda issiqlik va massa almashish jarayonini tadqiqot qilishda qo'llanilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi masala qo'yilishining qat'iyligi va mexanikaning fundamental asosiy qonunlarini qo'llanilishi, shuningdek, olingan ba'zi natijalarni ma'lum yechimlar va boshqa mualliflarning eksperimental ma'lumotlari bilan taqqoslash orqali ta'minlangan hamda tegishli xulosa va takliflarning mutasadi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif qilingan sonli hisoblash usullari, samarali algoritmlari, takomillashtirilgan turbulentlik modellari ichki, tashqi turbulent struya oqimlar va yonish nazariyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati taklif etilgan usullar va algoritmlar asosida ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot yordamida ichki oqimlarni yanada aniqroq tadqiqot qilishda, samarali yoqilg'i pechlarini va raketa-kosmik texnikalarini loyihalashda, yoqilg'i tabiiy gazlarni tejab yoqishda, binolarni toza havo bilan ta'minlashda va atrof-muhitga zararli gaz chiqindilarini tarqatish kabi ekologik muammolarni yechishda bevosita qo'llanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Quvurlarda turbulent oqimlarni qo'shilishi va tarqalishi hamda fazoviy diffusion yonish jarayonlarini tadqiq qilish uchun takomillashtirilgan matematik modellar, usullar, algoritmlar va dasturlardan foydalanish natijasida quyidagi natijalarga erishilgan:

sonli o'rganish natijalari Buxoroenergomarkaz aksiyadorlik jamiyati ob'yektlariga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024- yil 13 - iyundagi 3/17-4/4-3678-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yonish qozoniga uzatiladigan yoqilg'i gaz tezligi (sarfi) va havo miqdorini talab darajasida berish tavsiyasi gazning to'liq yonishi va alangada yetarli darajadagi haroratga ega bo'lishi ta'minlangan va gaz sarfini 0.9-2% gacha qisqartirgan;

gazlarning quvurda qo'shilishi va tarqalishi jarayonlarini nazariy o'rganilgan natijalari Kogon magistral gaz quvurlari boshqarmasi faoliyatiga joriy qilingan. Natijada, atrof muhitga gaz chiqindilarini tarqatishni 10-12% ga qisqartirishga erishilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 - yil 13 - iyundagi 3/17-4/4-3678-sonli ma'lumotnomasi);

tabiiy gazning to'liq yonishiga doir tadqiqot natijalari «Kogon isitgich moslamalar» MCHJ ob'yektlariga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 - yil 13 - iyundagi 3/17-4/4-3678-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yoqilg'i gazning to'liq yonishi uchun havoning zaruriy miqdoridan 4-8 % ko'proq berilganda, yoqilg'i sarfi 3-4% gacha kamaygan va tavsiya qilingan sopllo geometrik o'chamlari yoqilg'i sarfini 4% gacha qisqartirishga olib kelgan;

ishlab chiqilgan usul va algoritmlar “Anomal diffuziyaning differensial matematik modellari uchun sonli algoritmlarni ishlab chiqish” loyihasi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda joriy qilingan (Xoja Ahmad Yassaviy nomidagi Xalqaro Qozoq-Turk Universiteti, 2024 yil 14-fevraldagi, 04/550 - sonli ma'lumotnomasi). Natijasida, elliptik tenglama va aralash parabolik-giperbolik tip uchun noma'lum manbani aniqlashning teskari masalalarini echishning samarali algoritmi tuzilgan;

F2-FA-0-83921/F2-FA-F0383 “O'ta o'tkazgichlar va magnit materiallarda kuchli korrelyatsiya o'zaro ta'sirlar va ularning kritik parametrlarini hisoblash” fundamental grantini bajarishda xususiy hosilali differentsial tenglamalarni sonli yechish usullari o'ta o'tkazgichlarning magnit material bilan o'zaro ta'siri kritik parametrlarini hisoblashda qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, 2024-yil 22-fevraldagi 02/14-542-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, o'ta o'tkazuvchanlik jarayonida muhitda energiyaning juda kam tarqalishi va kristallga qo'llaniladigan magnitlanish jarayonlariga mexanik kuchlanish ta'sirining muhimligi aniqlangan;

Nazariy va amaliy natijalar F-4-32 “Сингуляр коэффициентли Геллерстедт тенгламаси учун Трикоми, силжишли ва Бицадзе-Самарский масалалари шартлари бирлаштирилган масалаларнинг корректлигини ўрганиш” fundamental grantini amalga oshirishda joriy qilindi (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, 2024-yil 22-fevraldagi 02/14-542-sonli guvohnoma). Natijada, aralash tipdagi tenglamalar va Gellershtedt tenglamasi uchun chegaraviy masalalarning sonli yechimlari olingan;

ko'p komponentli reaksiyaga kirishuvchi gazning oqim jarayonini tavsiflovchi uch o'lchovli parabolizatsiyalangan Nave-Stoks tenglamalarini sonli echishning ishlab chiqilgan usullaridan chegaraviy masalalarni echish mavzusidagi ma'ruzalar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida joriy qilingan (Qirg'iziston Respublikasi Ta'lim va fan vazirligining O'sh texnologiya universitetining 2023- yil 26-dekabrda 09.08/365-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, “Axborot tizimlari va texnologiyalari” yo'nalishi talabalari kimyoviy reaksiyaga kirishuvchi fazoviy oqimlarni modellashtirish va ularni sonli yechishni o'zlashtirgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 30 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 9 ta respublika va 21 ta xalqaro konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 60 ta ilmiy maqola chop etilgan. Shundan 30 ta ilmiy maqola, jumladan, 11 ta xorijiy (7 tasi Scopus xalqaro bazaga kiritilgan jurnallarda) va O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini

analitik almashtirishlar bilan Nave-Stoks tenglamalarini yechish metodi va algoritmi ham keltirilgan, shular qatori ishlab chiqilgan metod va hisoblash algoritmi hamda dasturiy ta'minot samaradorligiga va natijalarning haqqoniyligiga doir izlanishlar keltirilgan.

(1) va (2) o'zgarishlarga muvofiq, o'lchovsiz Nave-Stoks tenglamalari sistemasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\begin{aligned}
& \frac{\partial}{\partial t} f F_y \varphi_x \rho + \frac{1}{L} \frac{\partial}{\partial x} f F_y \rho u + \frac{\partial}{\partial y} \varphi_x (\rho v + \Omega \rho u) = 0, \\
& \frac{\partial}{\partial t} f F_y \varphi_x \rho u + \frac{1}{L} \frac{\partial}{\partial x} f F_y (\rho u^2 + P) + \frac{\partial}{\partial y} \varphi_x (\rho u v + \Omega (\rho u^2 + p)) = \\
& = \frac{1}{ReL^2} \frac{\partial}{\partial x} \frac{4}{3} f F_y \varphi_x^{-1} \mu \frac{\partial u}{\partial x} + \frac{1}{ReL} \frac{\partial}{\partial x} \mu \left(\frac{4}{3} \Omega \frac{\partial u}{\partial y} - \frac{2}{3} \frac{\partial v}{\partial y} \right) + \\
& + \frac{1}{ReL} \frac{\partial}{\partial y} \mu \left(\frac{\partial v}{\partial x} + \frac{4}{3} \frac{\partial u}{\partial x} \Omega \right) + \frac{\partial}{Re\partial y} f^{-1} F_y^{-1} \varphi_x \mu \left(\left(\frac{4}{3} \Omega^2 + 1 \right) \frac{\partial u}{\partial y} + \frac{1}{3} \Omega \frac{\partial v}{\partial y} \right). \quad (3) \\
& \frac{\partial}{\partial t} f F_y \varphi_x \rho v + \frac{1}{L} \frac{\partial}{\partial x} f F_y \rho u v + \frac{\partial}{\partial y} \varphi_x (\rho v^2 + p + \Omega \rho u v) = \\
& = \frac{1}{ReL^2} \frac{\partial}{\partial x} f \varphi_x^{-1} F_y \mu \frac{\partial v}{\partial x} + \frac{1}{ReL} \frac{\partial}{\partial x} \mu \left(\frac{\partial u}{\partial y} + \Omega \frac{\partial v}{\partial y} \right) + \\
& + \frac{1}{ReL} \frac{\partial}{\partial y} \mu \left(-\frac{2}{3} \frac{\partial u}{\partial x} + \Omega \frac{\partial v}{\partial x} \right) + \\
& + \frac{\partial}{Re\partial y} f^{-1} F_y^{-1} \varphi_x \mu \left[\left(\Omega^2 + \frac{4}{3} \right) \frac{\partial v}{\partial y} + \frac{1}{3} \Omega \frac{\partial u}{\partial y} \right]. \\
& \frac{\partial}{\partial t} f F_y \varphi_x E + \frac{1}{L} \frac{\partial}{\partial x} f F_y (E + p) u + \frac{\partial}{\partial y} \varphi_x ((E + p) v + \Omega (E + p) u) = \\
& = \frac{1}{ReL^2} \frac{\partial}{\partial x} f \varphi_x^{-1} F_y \mu \left(v \frac{\partial v}{\partial x} + \frac{4}{3} u \frac{\partial u}{\partial x} + \frac{c_p}{Pr_T} \frac{\partial T}{\partial x} \right) + \\
& + \frac{1}{ReL} \frac{\partial}{\partial x} \mu \left(v \frac{\partial u}{\partial y} - \frac{2}{3} u \frac{\partial v}{\partial y} + \Omega v \frac{\partial v}{\partial y} + \frac{4}{3} \Omega u \frac{\partial u}{\partial y} + \frac{c_p}{Pr_T} \Omega \frac{\partial T}{\partial y} \right) + \\
& + \frac{1}{ReL} \frac{\partial}{\partial y} \mu \left(u \frac{\partial v}{\partial x} - \frac{2}{3} v \frac{\partial u}{\partial x} + \Omega v \frac{\partial v}{\partial x} + \frac{4}{3} \Omega u \frac{\partial u}{\partial x} + \frac{c_p}{Pr_T} \Omega \frac{\partial T}{\partial x} \right) + \\
& + \frac{\partial}{Re\partial y} f^{-1} F_y^{-1} \varphi_x \mu \left[\left(\Omega^2 + \frac{4}{3} \right) v \frac{\partial v}{\partial y} + \left(\frac{4}{3} \Omega^2 + 1 \right) u \frac{\partial u}{\partial y} + (\Omega^2 + 1) \frac{c_p}{Pr_T} \frac{\partial T}{\partial y} + \right. \\
& \left. + \frac{1}{3} \Omega \left(u \frac{\partial v}{\partial y} + v \frac{\partial u}{\partial y} \right) \right],
\end{aligned}$$

$$E = \rho C_v T + \frac{1}{2} \rho (u^2 + v^2), \quad p = \rho T.$$

Yuqoridagi tengliklarda L – quvur uzunligi, f – guvur formasi; $\Omega = -\eta f' / f$, K_x, K_y – quyushtirish parametrlari, qolganlari umum qabul qilingan belgilashlar.

Turbulent yopishqoqlikni nisoblash uchun ushbu formula qo'llanilgan:

$$\mu = \text{const} T^{0,6472} + \varepsilon \rho b^2(x) \left| \frac{\partial u}{\partial y} \right|; \quad (4)$$

bu yerda ε - empirik turbulentlik doimiysi; $b(x)$ – siljish maydonining shartli yarim kengligi.

Chegaraviy va boshlang'ich shartlarni shakllantirish. Chegaraviy shartlarni qo'yishda quvur yassi va simmetrik deb faraz qilinadi (1-rasm). Bunday holda, oqimni simmetriya o'qi va quvur bitta devori orasidagi mintaqadagi oqimni

o'rganish bilan cheklanish mumkin. Berilgan (3) tenglamalar sistemasi va (4) munosabat quyidagi o'lchamsiz boshlang'ich va chegaraviy shartlar yordamida yechilishi mumkin:

$$\begin{aligned}
 & t = t_0: \\
 & \begin{cases} u = 1, v = 0, E = E_2, \mu = \mu_2, \rho = 1, p = p_2 : 0 \leq y \leq R_1, \\ u = u_1, v = 0, E = E_1, \mu = \mu_1, \rho = \rho_1, p = p_1 : R_1 < y < 1, \\ u = 0, v = 0, E = E_\omega, \rho = \rho_\omega, p = p_\omega, \mu = \mu_\omega : y = f_\omega = 1; \end{cases} \quad (5) \\
 & 0 < x < 1: \begin{cases} u = 0, v = 0, E = E_0, \rho = \rho_0, p = p_0, \mu = \mu_0 : 0 < y < f_\omega = 1, \\ u = 0, v = 0, E = E_\omega, \rho = \rho_\omega, p = p_\omega, \mu = \mu_\omega : y = 1; \end{cases}
 \end{aligned}$$

$$\begin{aligned}
 & t > t_0: \\
 & x = 0: \begin{cases} u = 1, v = 0, E = E_2, \mu = \mu_2, \rho = 1, p = p_2 : 0 \leq y \leq R_1, \\ u = u_1, v = 0, E = E_1, \mu = \mu_1, \rho = \rho_1, p = p_1 : R_1 < y < 1, \\ u = 0, v = 0, E = E_\omega, \rho = \rho_\omega, p = p_1, \mu = \mu_\omega : y = 1; \end{cases} \quad (6)
 \end{aligned}$$

$$0 < x \leq 1: \left\{ \begin{array}{l} u = 0, v = 0, E = \tilde{E}_\omega, \\ \rho = \tilde{\rho}_\omega, \frac{\partial P}{\partial \vec{n}} = 0, \mu = \tilde{\mu}_\omega, T = \tilde{T}_\omega, \text{yoki } \frac{\partial T}{\partial \vec{n}} = 0; \end{array} \right\} y = 1, \quad (7)$$

$$\left. \left\{ \frac{\partial u}{\partial y} = v = \frac{\partial E}{\partial y} = 0. \right\} \right\} y = 0. \quad (8)$$

$$x = L: \left\{ \frac{\partial u}{\partial x} = \frac{\partial v}{\partial x} = \frac{\partial E}{\partial x} = 0 \text{ yoki } \frac{\partial^2 u}{\partial x^2} = \frac{\partial^2 v}{\partial x^2} = \frac{\partial^2 E}{\partial x^2} = 0 \right\} 0 < y < 1. \quad (9)$$

Bu yerda $\rho_1, E_1, \hat{\mu}_1$ va $\rho_2, E_2, \hat{\mu}_2$ mos ravishda berilgan struyalar temperaturalari T_1, T_2 va bosimlari p_1, p_2 orqali hisoblanadi (indeks 2 asosiy struyaga, indeks 1 yo'ldosh struyaga tegishlilikni bildiradi). $\rho_\omega, E_\omega, \tilde{\rho}_\omega, \tilde{E}_\omega, \tilde{\mu}_\omega$ qiymatlari u, v, T, P larning quvur devoridagi chegara shartlari orqali hisoblanadi, u_0, E_0, ρ_0, μ_0 , mos o'zgaruvchilarning biror boshlang'ich qiymatlari.

Barcha variantlarda devorda P bo'yicha $\partial P / \partial \vec{n} = 0$ shart qo'yildi, bunda P ning o'zgarishligi butun chegara qatlami bo'ylab emas, balki faqat devorgacha Δy qadamgacha qalinlikda o'rinli deb qaraladi.

Nave-Stoks (3)-(4) tenglamalarini (5)-(9) boshlang'ich va chegara shartlari bilan sonli yechish uchun (3) differensial tenglamalar sistemasini vektor-konservativ shaklda yozamiz

$$\frac{\partial U}{\partial t} + \frac{\partial F(U)}{\partial x} + \frac{\partial G(U)}{\partial y} = \frac{\partial V_1(U, U_x)}{\partial x} + \frac{\partial V_2(U, U_y)}{\partial x} + \frac{\partial W_1(U, U_x)}{\partial y} + \frac{\partial W_2(U, U_y)}{\partial y}, \quad (10)$$

bu yerda $U = [\varphi_x F_y f \rho, \varphi_x F_y f \rho u, \varphi_x F_y f \rho v, \varphi_x F_y f E]$ – vektor konservativ o'zgaruvchilar va F, G, V_1, V_2, W_1, W_2 -oqim vektorlari.


(10) tenglamadan $\partial U / \partial t$ topiladi va vaqt hosilasi uchun ushbu universal chekli ayirma formulasidan foydalaniladi

$$\Delta U^n = \frac{\theta \Delta t}{1 + \theta_2} \frac{\partial}{\partial t} \Delta U^n + \frac{\Delta t}{1 + \theta_2} \frac{\partial}{\partial t} U^n + \frac{\theta_2}{1 + \theta_2} \Delta U^{n-1} + 0 \left[\left(\theta - \frac{1}{2} - \theta_2 \right) \Delta t^2 + \Delta t^3 \right], \quad (11)$$

bu yerda $\Delta U^n = U^{n+1} - U^n$.

Bu formulaning imkoniyatlari va yozuv shakli θ_2, θ parametrlarning qiymatlarini tanlashga bog'liq. Agar $\theta_2 = 0.5$ va $\theta=1$ bo'lsa, sxema $O(\Delta t^3)$ aniqlik bilan olingan oshkormas uch nuqtali orqaga approksimatsiyali bo'ladi.

Differensial tenglamalar sistemasini sonli yechish uchun oshkormas faktorlangan Beam-Warming ayirmali sxemasidan foydalanamiz. Sxema konservativ o'zgaruvchilar va oqimlarning o'sishlari (farqli o'zgarishi) ko'rinishida qurilgan bo'lib, bu sxemaning sodda yozuvini ta'minlaydi va samarali hisoblash algoritmiga olib keladi. Algoritm vaqt bo'yicha ikkinchi tartibli aniqlikka ega bo'lib, faktorizatsiyalangan va iteratsiyani talab qilmaydi, hamda uch qatlamli bo'lgani bilan, u faqat ikkita vaqt qatlamida ma'lumotlarni saqlashni talab qiladi xolos.



2-rasm. Ikkala koordinatalar hisoblas nuqtalar sonini o'zgarishidagi bo'ylanma tezlik profili

2-rasmda N_x va N_y (mos ravishda Ox va Oy o'qi bo'icha nuqtalar soni) nuqtalar soni 11×11 , 21×21 , 31×31 , 31×41 qadam o'zgarmas va 16×16 ($K_x = -0,4727$, $K_y = 2,6045$) o'zgaruvchi, hamda 31×41 to'rda, lekin "tor kanal" modeli yordamida olingan quvur chiqish qicmidagi bo'ylanma tezlik profili keltirilgan. Olingan natijalar o'rtasidagi yaxshi kelishuv, hisoblashlarni kam sonli nuqtalarda, lekin hisoblashlarda quyuqlashtirish funksiyalarini qo'llab hisoblash, hisoblash vaqtini tejash va aniq natija olish imkonini beradi. Uslubiy masalalardan yana biri, Kurant soni (c) o'zgarish imkoniyati va uning yechimning yaqinlashishiga ta'siri bilan bog'liq edi. Kurant sonining keng oraliqda o'zgarishida uncha katta bo'lmagan Reynolds sonlarida kesimi o'zgarmas quvur uchun vaqt bo'yicha iteratsiya soni 100 tadan va kesimi o'zgaruvchi uchun 170 tadan oshmadi. Uchinchi bob "**Kesimi o'zgarmas va o'zgaruvchi yassi quvurda ikki oqimning aralashishini parametrik o'rganish**" deb nomlangan. Ushbu bobda ishlab chiqilgan metod va yechish algoritmi asosida tuzilgan dastur yordamida koaksial quvulardan kesimi o'zgarmas va o'zgaruvchi quvurga kiradigan turbulent havo struyalarni har xil boshlang'ich qiymatlari nisbatida struyalarning qo'shilishi va tarqalishi o'rganilgan(1-rasm).

Asosiy tadqiqot obyekti sifatida Baev V.K., Bakaldina L.A., Sidorov I.V. ishlaridagidek, ushbu geometrik xususiyatlarga ega quvur tanlandi: $D = 188$ mm ($f_0 = 94$ mm - yarim balandlik), $L = 1,4$ m ($L = 0,5$ m). Xususan, ushbu parametrlar


nisbati- tezlik ($\varphi_1 = u_2 / u_1$), kirish o'lchamlari ($\varphi_2 = R_1 / f_0$), geometrik o'lchamlar ($\varphi_3 = L / f_0$), temperatura ($\varphi_4 = T_2 / T_1$) va bosim ($\varphi_5 = P_2 / P_1$), struyalarni qo'shilishi va tarqalishiga ta'siri o'rganilgan.

§3.1 da struyalar tezliklari va ularning geometriyalari nisbatini teng temperaturalarda ($\varphi_4 = T_2 / T_1, T_2 = 300 K, T_1 = 300 K$) va bosimlarda ($\varphi_5 = P_2 / P_1, P_2 = 1 \text{ atm}, P_1 = 1 \text{ atm}$) oqim rivojiga ta'siri o'rganilgan.

Sonli natijalar shuni ko'rsatdiki, yetarlicha katta φ_1 ($\varphi_1 = 45,072, u_2 = 311 \text{ m/s}, u_1 = 6.9 \text{ m/s}$) va kichik ($\varphi_1 = 0.022, u_2 = 6,9 \text{ m/s}, u_1 = 311 \text{ m/s}$) da, kanalning kirish kesimining 25% ni egallagan oqim resirkulyatsiya zonasining shakllanishi kuzatiladi.

§3.2 da kesimi o'zgarmas quvurda izotermik bo'lmagan oqimlarning aralashishi va tarqalish jarayoniga ta'siri ushbu variantlarda $0,428 < \varphi_4 < 2,333, \varphi_5 = 1, \varphi_4 = 0,428; T_2 = 300 K, T_1 = 700 K$ da va $\varphi_4 = 2,333; T_2 = 700 K, T_1 = 300 K$ da organilgan. Kichik $\varphi_1, \varphi_2 = 0,26$ va $\varphi_2 = 0,5$ ($\varphi_4 = 2,333$) aralashish hududida tezlik va temperatura profilida keskin o'zgarish kuzatilmaydi. Tezlik φ_1 va temperatura φ_4 larning katta nisbatlarida ($\varphi_1 = 72,464; u_2 = 500 \text{ m/s}, u_1 = 6.9 \text{ m/s}; \varphi_2 = 0,26; \varphi_3 = 14,894; \varphi_4 = 2,333$) kirish bosh qismining taxminan 55% ni egallaydi va quvur bo'ylab 20 sm ga yetadi (3-rasm), bu V.K.Baev, L.A.Bakaldin, V.A.Konstantinovskiy, I.V.Sidorovlar ishlarining eksperimental ma'lumotlari bilan tasdiqlangan.

§3.3 da struya bosimlari har xil bo'lganda ($1 < \varphi_5 \leq 4$), temperaturaning ($0,428 < \varphi_4 < 2,333$), tezlikning ($0,022 < \varphi_1 < 72,464$) va soplolarning kirish o'lchamlarining ($\varphi_2 = 0,26$ va $\varphi_2 = 0,5$) nisbatida struyalarning qo'shilish va tarqalishi xususiyatlariga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan.



3-rasm. Quvurning turli kesimlardagi va o'q bo'icha bo'ylama tezlik profilari o'zgarishi: $\varphi_1 = 72,4638; \varphi_2 = 0,26; \varphi_3 = 5,3191; \varphi_4 = 2,33; \varphi_5 = 1$

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, struyaning temperaturasi va bosimining oshishi, quvurning dastlabki qismlarida resirkulyatsiya oqimi paydo bo'lishiga va quvurning bosh qismida oqimning tez rivojlanishiga, shuningdek o'qda bo'ylanma tezlikni keskin oshishiga olib keladi va kirish qismidan uzoqlashishi bilan uning tez pasayishi kuzatiladi.


Teskari oqimlar kuzatiladigan boshlang'ich sohalarda ($\varphi_1 = 45.072; \varphi_2 = 0.5; \varphi_4 = 1,666; T_2 = 500 K, T_1 = 300 K; \varphi_5 = 2$), ko'ndalang bosim o'zgarishi garmonik bo'lishi kuzatiladi (4-rasm).

§3.4 va 3.5 larda yassi tirqishlardan (koakcsal soplolardan) chiqayotgan turbulent havo oqimrini kengayuvchi quvurda tarqalishi o'rganildi.

Tadqiqotlar yo'ldosh struyalarning tezliklari nisbati $1,4705 \leq \varphi_1 \leq 71,428$ ($\varphi_1 = 1,4705: u_2 = 500 \text{ m/s}, u_1 = 340 \text{ m/s}$ va $\varphi_1 = 71,428: u_2 = 500 \text{ m/s}, u_1 = 7 \text{ m/s}$); kirish o'lchamlari $0.26 \leq \varphi_2 \leq 0,5$; temperaturalari $1 \leq \varphi_4 \leq 2,333$;


bosimlari $1 \leq \varphi_5 \leq 2$ nisbatlarida va shuningdek quvur kengayish burchaklari $0 < \gamma \leq 11^\circ$ da o'tkazildi.

Tadqiqotdan ma'lum bo'ldiki, teng temperaturalarda ($\varphi_4 = 1$) va bosimlarda ($\varphi_5 = 1$), $\gamma = 6^\circ$ va $\gamma = 11^\circ$ bo'lganda, teskari oqim zonalarini kuzatilmaydi, bo'ylanma tezlik va temperatura quvur ko'ndalang kesimi bo'ylab silliq o'zgaradi.



4-rasm. Kanalning kirish qismidan turli masofalardagi ko'ndalang kesimlarda bosim taqsimoti: $\varphi_1=45.0725$; $\varphi_2=0.5$; $\varphi_3=14.8936$; $\varphi_4=1.666$; $\varphi_5=2$

allmashtirishlar. Masala qo'yilishi va yechish metodi» deb nomlanadi va shu masalalar yoritilgan.



5-rasm. To'g'ri to'rtburchakli coplodan tarqalayotgan struya tasviri

ko'ndalang kesimi bo'ylab uzluksiz ravishda o'zgarib turadigan \tilde{C} konsentratsiya funksiyasini kiritish orqali komponentlarning massa konsentratsiyasi tenglamalarini sonini kamaytirish usuli ko'rsatilgan, bu esa to'rt komponentli aralashma uchun manbaali tenglamalardan manbaasiz bitta tenglamaga keltirish

§3.5 da bosimlar har xil bo'lganda, yo'ldosh struyalar temperaturalari, tezliklari nisbatlari va koaksiyal soplolarning geometrik o'lchamlari nisbatlarini kengayuvchan quvurda aralashishi va tarqalishiga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan.

Struya bosimlari har xil ($\varphi_5 = 2$), quvur kengayish burchagi $\gamma = 6^\circ$ bo'lganda, tovush tezligigacha va unga yaqin oqim tezliklarida ($\varphi_1 = 45,072$) va temperaturalarning katta nisbatida ($\varphi_4 = 2,333$), quvurning dastlabki qismi devoriga yaqin hududida resirkulyatsiya zonasi kuzatiladi.

To'rtinchi bob **“Reaksiyaga kiruvchi gazlarning uch o'lchamli turbulent struya nazariyasining asosiy tenglamalari va ularda**

§4.1 da to'g'ri burchakli soplodan (5-rasm) oqib chiqadigan reaksiyaga kirishuvchi gaz aralashmasining yo'ldosh struya havoga (oksidlovchi) tarqalishining uch o'lchovli turbulent struya oqimlarini ifodalovchi matematik modeli ba uni amalga oshirish uchun muhim bo'lgan chegaraviy va boshlang'ich shartlar keltirilgan.

§4.2 da propan-butan aralashmasining havoda diffuzion yonishi modeli va uning uch o'lchovli turbulent struya oqimlari uchun amalga oshirilishi ko'rsatilgan. Struya oqimi

imkonini beradi. \tilde{C} funktsiyasi soplning yoqilg'i qismida 1 ga, havo zonasida esa 0 ga teng qiymatni oladi.

§4.3 da masalani sonli yechish uchun dastlabki tenglamalar sistemasini va chegaraviy shartlarni o'lchovsiz holga va ushbu $y=\bar{y}/L$ ($L=a/b$, \bar{y} – o'lchovsiz koordinata) almashtirishlar yordamida chiqish kesimini kvadratga keltirish ko'rsatilgan. Shundan so'ng tenglamalar sistemasini quyidagicha ko'rinishda bo'ladi:

$$\begin{aligned} & \frac{\partial \rho u}{\partial x} + \frac{1}{L} \frac{\partial \rho v}{\partial y} + \frac{\partial \rho w}{\partial z} = 0, \\ & \rho u \frac{\partial u}{\partial x} + \rho v \frac{\partial u}{L \partial y} + \rho w \frac{\partial u}{\partial z} = -\frac{\partial P}{\partial x} + \frac{1}{L^2} \frac{\partial}{\partial y} \left(\mu \frac{\partial u}{\partial y} \right) + \frac{\partial}{\partial z} \left(\mu \frac{\partial u}{\partial z} \right), \\ & \rho u \frac{\partial v}{\partial x} + \rho v \frac{\partial v}{L \partial y} + \rho w \frac{\partial v}{\partial z} = -\frac{\partial P}{L \partial y} + \frac{4}{3L^2} \frac{\partial}{\partial y} \left(\mu \frac{\partial v}{\partial y} \right) + \\ & \quad + \frac{\partial}{\partial z} \left(\mu \frac{\partial v}{\partial z} \right) - \frac{2}{3L} \frac{\partial}{\partial y} \left(\mu \frac{\partial w}{\partial z} \right) + \frac{\partial}{L \partial z} \left(\mu \frac{\partial w}{\partial y} \right), \\ & \rho u \frac{\partial w}{\partial x} + \rho v \frac{\partial w}{L \partial y} + \rho w \frac{\partial w}{\partial z} = -\frac{\partial P}{\partial z} + \frac{4}{3} \frac{\partial}{\partial z} \left(\mu \frac{\partial w}{\partial z} \right) + \\ & \quad + \frac{1}{L^2} \frac{\partial}{\partial y} \left(\mu \frac{\partial w}{\partial y} \right) + \frac{1}{L} \frac{\partial}{\partial y} \left(\mu \frac{\partial v}{\partial z} \right) - \frac{2}{3L} \frac{\partial}{\partial z} \left(\mu \frac{\partial v}{\partial y} \right), \\ & \rho u \frac{\partial H}{\partial x} + \rho v \frac{1}{L} \frac{\partial H}{\partial y} + \rho w \frac{\partial H}{\partial z} = \frac{1}{L^2} \frac{1}{Pr_T} \frac{\partial}{\partial y} \left(\mu \frac{\partial H}{\partial y} \right) + \frac{1}{Pr_T} \frac{\partial}{\partial z} \left(\mu \frac{\partial H}{\partial z} \right) + Q_{dis}, \\ & \rho u \frac{\partial \tilde{C}}{\partial x} + \rho v \frac{1}{L} \frac{\partial \tilde{C}}{\partial y} + \rho w \frac{\partial \tilde{C}}{\partial z} = \frac{1}{L^2 Sc_T} \frac{\partial}{\partial y} \left(\mu \frac{\partial \tilde{C}}{\partial y} \right) + \frac{1}{Sc_T} \frac{\partial}{\partial z} \left(\mu \frac{\partial \tilde{C}}{\partial z} \right), \end{aligned} \quad (12)$$

bunda

